



OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR
VAZIRLIGI

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**



**“AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TIZIMLARI VA TEXNOLOGIYALARING
ZAMONAVIY YUTUQLARI”
MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

Toshkent – 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

“Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)”
yo'nalishi



**“AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI VA
TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY YUTUQLARI”**

MODULI BO'YICHA

O' QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “27”dekabrdagi №485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **F.M.Zokirova** - pedagogika fanlari doktori, professor.
M.Raximov - PhD, dotsent

Taqrizchilar: **X.N.Zayniddinov** - texnika fanlari doktori, professor.
SH. Pozilova - PhD, dotsent

O‘quv-uslubiy majmua O‘quv dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (20__-yil “__”-____dagi _____-sonli bayonnomasi).

MUNDARIJA

I. Ishchi dastur	6
II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol metodlar	12
III. Nazariy materiallar	19
IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari	73
V. Keyslar banki	100
VI. Glossariy	104
VII. Adabiyotlar ro‘yxati.....	107

I-BO‘LIM ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining ushbu fan doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulining maqsadi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlanish istiqbollari haqida oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini oshirish.

Modulning vazifalari:

- Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning turli sohalardan zamonaviy yutuqlari va qo‘sghan hissasi,
- Buyumlar interneti (Internet of Things (IoT)), asosiy tushunchalar, Arduino qurilmasining imkoniyatlari,
- Biotibbiyot injiniringi (Biomedical Engineering) va ularning didaktik imkoniyatlari,
- Inson va kompyuter o‘zaro aloqasi (Human-Computer Interaction), ma’lumotlarga parallel ishlov berish (Parallel processing), ularning tamoyillari ularning asosiy qurilmalari va ta’limdagi imkoniyatlari va amaliyotda qo’llash usullari haqida nazariy va amaliy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni

shakllantirishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, buyumlar interneti (Internet of Things (IoT)), biotibbiyot injiniringi (Biomedical Engineering), inson va kompyuter o‘zaro aloqasi (Human-Computer Interaction), ma’lumotlarga parallel ishlov berish (Parallel processing), ularning asosiy kurilmalari va ta’limdagi imkoniyatlarini haqida **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- Python dasturlash tili va uning imkoniyatlaridan foydalanib turli masalalarini yechish va tahlil etish **ko‘nikma va malakalarini egallashi**;
- Arduino qurilmalaridan foydalanish malakalariga ega bo‘lishi lozim;
- ta’lim tizimida buyumlar interneti, inson va kompyuter o‘zaro aloqasi tizimlaridan foydalanib ta’lim jarayonini boshqarish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlardan, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruuhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarining dolzarb muammolari” “o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta’lim jarayonida bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar va virtual reallik tizimlaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rnı

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning rivojlanishida bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar va virtual reallik tizimlaridan foydalanish va amalda qo‘llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi				
		Jami	jumladan			
		Nazariy	Amaiymashg‘ulo	Kochmamashg‘ulo	Mustaillim	
1.	Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari va qo‘shgan hissasi. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Kompyuter o‘qitish vositalarining turlari va tasnifi. Kompyuterni o‘qitish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar	2	2			
2.	Buyumlar interneti (Internet of Things (IoT)): asosiy tushunchalar. Arduino qurilmalariga dastur yozish	6	2	4		
3.	Axborot-kommunikatsiya tizimlarida biotibbiyot injiniringi (Biomedical Engineering): asosiy tushunchalar. Biotibbiyot tasvirlash va biotibbiy optika. Tizimlar va integral muhandislik. Python dasturlash tili va uning imkoniyatlari.	12	2	4	6	
4.	Inson va kompyuter o‘zaro aloqasi (Human-Computer Interaction): asosiy tushunchalar.	2	2			
5	Axborot-kommunikatsiya tizimlarida ma’lumotlarga parallel ishlov berish (Big Data): asosiy tushunchalar, tamoyillar va tizimlar.	2		2		
	Jami:	24	8	10	6	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI
1-MAVZU: AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI VA
TEXNOLOGIYALARING ZAMONAVIY YUTUQLARI VA QO'SHGAN
HISSASI (2 SOAT)

Ta'lilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Kompyuter o'qitish vositalarining turlari va tasnifi. Kompyuterni o'qitish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

2-MAVZU: BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF THINGS (IOT)):
ASOSIY TUSHUNCHALAR. ARDUINO QURILMALARIGA DASTUR
YOZISH (2 SOAT)

Buyumlar interneti (Internet of things (IOT)): asosiy tushunchalar. Buyumlar internetining asosiy tashkil etuvchilari.

3-MAVZU: AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARIDA
BIOTIBBIYOT INJINIRINGI (BIOMEDICAL ENGINEERING): ASOSIY
TUSHUNCHALAR. PYTHON DASTURLASH TILI VA UNING
IMKONIYATLARI (2 SOAT)

Biotibbiyot Injiniringi (Biomedical Engineering): asosiy tushunchalar. Biotibbiyot tasvirlash va biotibbiy optika. Tizimlar va integral muhandislik.

4-MAVZU: INSON VA KOMPYUTER O'ZARO ALOQASI (HUMAN-
COMPUTER INTERACTION): ASOSIY TUSHUNCHALAR
(2 SOAT)

Kompyuter ko'rish: asosiy tushunchalar. Tasvirlarga raqamli ishlov berish. Tasvirlarni tanib olish. Obyektlarni kuzatish tizimlari. Tibbiy tasvir ma'lumotlarni qayta ishslash tizimlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI
1-AMALIY MASHG'ULOT
MAVZU: ARDUINO QURILMALARIGA DASTUR YOZISH (4 SOAT)

Arduino qurilmalariga dastur yozish. Arduino qurilmasining qo'shimcha modullari.

2-AMALIY MASHG‘ULOT
MAVZU: PYTHON DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI
(4 SOAT)

Python dasturlash tili va uning imkoniyatlari. Python dasturlash tili kutubxonalarini.

3-AMALIY MASHG‘ULOT
MAVZU: MA’LUMOTLARGA PARALLEL ISHLOV BERISH (2 SOAT)

Tasvirlarga parallel ishlov berish bosqichlari. OpenMP kutubxonasi imkoniyatlari bilan tanishib chiqish.

KO‘CHMA MASHG‘ULOT
**Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari yo‘nalishida olib
borilayotgan loyihalar (6 soat)**

TATU Texnologiyalar transferi, inkubatsiya va akseleratsiya bo‘limi o‘quv laboratoriyasida olib borilayotgan loyihalar misolida imkoniyatlarini namoyish etish.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish); bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II-BO‘LIM

MODULNI O‘QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Blum kubigi” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

1. Ushbu metodni ko‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi. Kubning har bir tomonida ko‘yidagi so‘zlar yoziladi:
 - **Sanab bering, ta’rif bering (oddiy savol)**
 - **Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtiruvchi savol)**
 - **Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)**
 - **Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)**
 - **Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)**
 - **Fikr bering (tahlil kilish va baxolash savoli)**
2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O‘qituvchi kubikni stolga tashlaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha quyidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
1. Nimalarni bilaman: -	2. Nimalarni bilihni xohlayman, nimalarni bilihim kerak: -
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	4. Nimalarni bilib oldim: -


“5W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo'yicha qo'yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta'rifi, mazmuni, nima uchun ishlataladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mukin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



“VEYER” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veyer” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

Muammoli savol					
1-usul		2-usul		3-usul	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

Xulosa:

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stady»

– o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagи asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sqliarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish


“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarining bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarining bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarining mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	Matn
“V” – tanish ma’lumot.	
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.	
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.	
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?	

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III-BO‘LIM

NAZARIY

MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-ma’ruza. Axborot-kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari va qo’shgan hissasi (2 soat)

Reja:

- 1.1. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
- 1.2. Kompyuter o‘qitish vositalarining turlari va tasnifi.
- 1.3. Kompyuterni o‘qitish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar.

Tayanch iboralar: *axborot-kommunikatsion texnologiya, axborotlashtirish, axborot tizimi, axborot tizimining apparat ta’minoti, axborot tizimining dasturiy ta’minoti, axborot tizimining axborot ta’minoti, axborot tizimining matematik ta’minoti, axborot tizimining hukukiy ta’minoti, LMS (Learning Management Systems), Web-texnologiyalar.*

1.1. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishi hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlarni tadbiq qilish darajasini tezlashtirib yubordi. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti tarmoq va sohalarini axborotlashtirish jamiyat rivojlanishining obyektiv jarayoni va zarur bo‘lgan axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va taqdim etishning tabiiy davomidir.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT) iboralari kundalik turmushda eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta, AKT bilan ish ko‘ramiz. Zamonaviy AKTdan foydalanish, axborot almashish, ularni uzatish, o‘zlashtirish inson faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga ma’lum bo‘lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, bilimlar ombori kabilar misol bo‘lishi mumkin. “XXI asr - axborotlashtirish asri”da ta’lim sohasiga elektron ta’limni joriy etish, har bir ta’lim muassasasida:

- o‘qitish va o‘qish jarayonining;
- ta’lim muassasasi boshqarilishining;
- ta’lim muassasasi bo‘linmalarining;
- ta’lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Axborot texnologiyalar – ob’ekt, jarayon yoki hodisa (*axborot mahsuloti*)ning holati to‘g‘risida yangi sifatdagi axborot olish uchun ma’lumotlarni to’plash, ularga ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullarining majmuidan

foydanuvchi jarayon.

Axborot texnologiyalari mavjud usullar va vositalardan foydalanib ma'lum axborotlarga ishlov berib, qayta ishlab yangi ko'rinishdagi inson faoliyati uchun zarur bo'lgan axborotlarni yaratish jarayonidir.

Axborot texnologiyasining maqsadi – inson tomonidan tahlil qilish va uning asosida qandaydir xatti-harakatni bajarish bo'yicha qaror qabul qilish uchun axborot ishlab chiqarish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, ushbu ta'lim vositasining **didaktik imkoniyatlari** obektning tabiiy jihatlari, texnik va texnologik fazilatlari, o'quv va tarbiyaviy jarayonida didaktik maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan aspektlari sifatida qaralishi mumkin.

AKT tasniflanishiga mos ravishda didaktik imkoniyatlarini uchta guruhga ajratish mumkin:

1. O'quv ma'lumotlarini taqdim etish.
2. O'quv ma'lumotlarini uzatish.
3. O'quv jarayonini tashkil etish.

O'quv ma'lumotlarini taqdim etish AKTlarning didaktik imkoniyatlari:

- axborotlarni ta'limga oid elektron resurslar orqali matn, grafika, audio, video, animatsion formatda ko'rsatish va uzatish;
- qiziqtiruvchi ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyati;
- qabul qilingan bilimlar asosida ko'nikmalarni mustaxkamlash va ko'nikmalarni amalda qo'llash imkoniyati;
- o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy axborotlarni tayyorlash, tartibga solish va ishlov berish;
- axborotni saqlash va yig'ish;
- axborotni tizimlashtirish.

O'quv ma'lumotlarini uzatish AKTlarning didaktik imkoniyatlari:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalar yordamida axborotlarni turli shakllarda tarqatish;
- ma'lumotlardan keng foydalanishni ta'minlash;


- qiziqtiruvchi ma'lumotlarni olish uchun biron-bir elektron ma'lumotlar bankiga va maqsadli o'quv ma'lumotlar bazalariga ulanish imkoniyati;
- turli xil axborot tashuvchi vositalardan ma'lumotlarni yuklash;
- kurs o'qituvchisi bilan muloqotni tashkiletish;
- bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilarga xabarlarni yuborish;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida asinxron ma'lumot almashish (matn, grafik, audio).
- konsultatsiyalar, nazorat qilish va hokazolarni tashkil etish imkoniyati.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqeal-hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson axborot ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish axborotlarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan axborotlarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Tizim deganda bir vaqtning o'zida ham yagona yaxlit deb qaraladigan har qanday obekt, ham qo'yilgan maqsadlarga erishish manfaatlarida birlashtirilgan turli elementlar majmui tushuniladi. Ma'lumki, bugungi kunda ko'plab turli xil tizimlar yaratilgan bo'lib, ular o'z tarkibi va bosh maqsadlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

Axborot tizimlari – bu katta hajmdagi axborotlarni tartiblash, tahlil qilish va saqlashga mo'ljallangan vositalar majmuasidir. Axborot tizimlari har qanday sohadagi vazifalarni hal qilish jarayonida zarur bo'ladigan axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish, chiqarib berishni ta'minlaydi. Axborot tizimi – qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida axborotni to'plash, saqlash, ishlov berish va chiqarishda foydalaniladigan vositalar, usullar va foydalanuvchilarning o'zaro bog'liq majmui.

Boshqarish - deb obektning asosiy xossalariini saqlab qolish yoki ma'lum bir maqsadga erishish uchun uni rivojlantiruvchi tizimning funksiyasiga aytildi.



1.1-rasm. Axborot tizimi va uni ta'minlovchi qismlari

Har qanday axborot tizim strukturasi, qo'llanish sohasidan qatiy nazar, bir

necha ta'minlovchi qismlardan iborat bo'ladi. Ularni ushbu grafikda tasvirlaymiz. Ta'minlovchi qismlar **6** xil bo'ladi: texnik, matematik, dasturiy, axborot, tashkiliy, huquqiy ta'minotlar.

Axborot tizimining texnik ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, shuningdek, bu vositalar va texnologik jarayonlar uchun zarur bo'lgan hujjatlardan iborat.

Texnik vositalarga quyidagilar kiradi:

1. Turli modeldagi kompyuterlar.
2. Axborotni yig'ish, toplash, qayta ishlash, uzatish va chiqarish vositalari.
3. Ma'lumotlarni uzatish va aloqa vositalari.
4. Orgtexnika va axborotni avtomatik o'qish vositalari.
5. Turli xil xom ashyo va boshqa materiallar.

Hujjatlarda texnik vositalarni tanlash, ularni ishlatishni tashkil etish, ma'lumotlarni qayta ishlashning texnologik jarayoni, texnik ta'minlanganlik darajasi va boshqalar qayd etib boriladi.

Axborot tizimining matematik ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan matematik usullar, modellardan iborat.

Matematik ta'minotga quyidagilar kiradi: boshqaruv jarayonlarini modellashtirish vositalari, tipik masalalarini tayyor yechish usul va vositalari (jumladan, matematik analiz, algebra, hisoblash usullari, differensial va integral tenglamalarga oid tayyor algoritm va usullar).

Axborot tizimining dasturiy ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan dasturlar. Dasturiy ta'minotga umumtizim dasturlari, maxsus dasturiy vositalar va ularga mos texnik hujjatlar kiradi.

Umumtizim dasturlarga foydalanuvchilarga mo'ljallangan va axborotga ishlov berishning tipik masalalarini hal qiluvchi dasturlar kiradi. Ular kompyuterning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, ma'lumotga ishlov berish jarayonlarini boshqaradi va nazorat qiladi.

Dasturiy ta'minotning texnik hujjatlari shu dasturlarning vazifalari, belgilanishi, yechiladigan masalalarning iqtisodiy matematik modellari, algoritmlari va dasturlarining ishlashini tasdiqlaydigan misollardan iborat bo'ladi.

Axborot tizimining axborot ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan axborotni yagona (unikal) klassifikatsiyalash va kodlash usullari, unikal (yagona, normativ) hujjatlar majmui, hujjatlar oqimining harakat marshrutlar sxemasi, ma'lumotlar bazasini tuzish texnologiyasidan iboratdir.

Hujjatlarning yagona (unikal) tizimi davlat, respublika, soha va regionlar kesimida yaratiladi. Asosiy maqsad - jamiyat ishlab chiqarishida barcha mahsulotlar, tovarlar uchun yagona, umumiyl ko'rsatkichlar, talablar ishlab chiqish.

Axborot oqimining sxemasi - axborot oqimining harakati marshrurtini va hajmini akslantiradi, dastlabki ma'lumotlarning kelib chiqish joylarini va natijaviy axborotni foydalanish joylarini aniqlaydi. Bu sxemalarni tahlil qilib boshqaruv ishlarini takomilllashtirish to'g'risida tadbirlar ishlab chiqish mumkin. Misol sifatida, yangi xodimning ishga qabul qilish bilan bog'liq hujjatlarning harakatlanishi aks ettirilgan qaydlarni keltirish mumkin.

Axborot tizimining tashkiliy ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan xodimlarning o'zaro va texnik vositalar bilan munosabatlarini aniqlovchi usullar va vositalardan iborat.

Tashkiliy ta'minot quyidagilardan iborat: axborot tizim o'rnatiladigan korxonaning mavjud boshqaruvi tizimining tahlili, avtomatlashtirilishi zarur bo'lgan masalalarni aniqlash, masalalarni kompyuterda yechishga tayyorlash. Bunga axborot tizimni texnik loyihasini tuzish uchun topshiriq va axborot tizimni foydalilagini texnik-iqtisodiy jihatdan asoslash ham kiradi.

Tashkilotning tarkibi va strukturasi haqida boshqaruvi qarorini ishlab chiqish, tashkilot boshqaruvi tizimini foydalilagini oshirishga qaratilgan masalalarni yechish metodologiyasini ishlab chiqish.

Axborot tizimining huquqiy ta'minoti - bu axborot tizim ishlab turishi uchun zarur bo'lgan huquqiy normalar bo'lib, axborot tizimini yaratish, faoliyat ko'rsatish, axborotni olish, ishlov berish va foydalanish qoidalarini aniqlab beradi.

Huquqiy ta'minot tarkibiga davlatning qonunlari, farmonlari, qarorlari va davlat tashkilotlari, vazirliklarning, mahalliy davlat organlarining buyruqlari, ko'rsatmalari, normativ hujjatlari va boshqalar kiradi. Huquqiy ta'minot tarkibida umumiy qism (ixtiyoriy axborot tizimning faoliyatini belgilaydi), mahalliy qismni (konkret axborot tizim faoliyatini belgilaydi) ajratish mumkin.

1.2. Kompyuter o'qitish vositalarining turlari va tasnifi.

Elektron ta'lim bevosita internet tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanib, Internet ta'lim tizimini shakllantirishga imkon beradi. Bunda quyidagilarni alohida ajratgan holda, ta'limni rivojlanishidagi muhim omillar sifatida keltirish maqsadga muvofiqdir:

1. Mobile Learning. Mobil o'qish va o'qitish. Apparat va dasturiy ta'minot yutuqlari mobile "smart phones" makonini yaratishdagi vositalarni yaratilishiga turtki bo'ldi. Internet tarmog'iga ulangan va xisoblash imkoniyatlarga ega mobil qurilmalar xattoki zamonaviy kompyuterlardan ommalashib ketdi.

2. Cloud computing. O'tgan bir necha yillar mobaynida bulutli hisoblash konsepsiysi va virtuallashtirish tamoyili ancha taraqqiy etdi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida muhim texnologiyalardan biriga aylandi. Ko'plab tashkilotlar infrastrukturasidagi sarfni, boshqaruvga ketadigan vaqt ni kamaytirish va takomillashgan virtual mashinalar uchun ketadigan xarajatlarni qisqartirish maqsadida bu yangi texnologiyani tadbiq etishni amalga oshirishga kirishdi. Bulutli hisoblashlar o'zida foydalanuvchilarga internet tarmog'i ilovalaridan foydalanish uchun qulay muhitni mujassam etadi: ushbu nuqtai nazardan ulardan foydalanish dolzarbligi mamlakatning ijtimoiy – siyosiy faoliyatida, shu jumladan elektron hukumatni joriy qilish va shakllantirish doirasida aloxida axamiyat kasb etadi.

3. One-to-One computing. O'qitish joyida tashkillashtirilayotgan axborot muxiti tobora tinglovchiga yaqin va do'stona tarzda amalga oshirilmoqda. Bunda texnologiyalarga universal imkoniylik tamoyili ilg'or surilib, turli qurilma va moslamalardan turli vaziyatlarda qulay foydalanishni ta'minlab beradi (laptop, computer, smart phone, tablet, kabilar asosida shaffof sinf yaratilishi).

4. Ubiquitous learning. Xar vaqtda va xar yerda tamoyili (“anytime, anywhere”) an’anaviy dars davomiyligini va tashkil etilishini takomillashtirilishini nazarda tutadi: virtual muxit orqali tinglovchi uchun “ubiquitous” – keng qamrovlik imkoniyatlarini yaratib beradi.

5. Gaming. O‘qitish jarayonida interfaol usullar, jumladan maqsadga yo‘naltirilgan dastur va o‘yinlarni kiritilishi tinglovchilarga nafaqat ta’lim metodikalarni boyitilishiga, balki ularning ijimoiy faoliyka chorlovchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

6. Personalized learning. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish tinglovchiga kerakli xajm va mazmundagi bilim olish va turli o‘qitish usullarini kerakli yo‘sinda qo‘llanilishiga imkon beradi.

7. Redefinition of learning spaces. O‘qitish makonini qayta kashf etish tamoyili tinglovchilarga xamkorlikda ishslash, fanlararo mutanosiblikni topish, tinglovchiga yo‘naltirilgan va uning talablariga moslasha oladigan muxit yaratilishini nazarda tutadi.

8. Teacher-generated open content. O‘qituvchi yaratgan ochiq kontent ta’lim tizimida o‘qituvchi tomonidan shakllantirilgan o‘qitish resurslarini va moslashgan materiallarni yaratishni va ulardan keng miqyosda foydalanishni nazarda tutgan xolda, tinglovchiga biror bir kursning ma’lum qismini yoxud manbani olishga imkon beradi.

9. Smart portfolio assessment. Baxolashning aqli portfoliosi tamoyili pedagog uchun “formatlangan” baxolash tizimini taqdim etadi, qaysiki real vaqt ma’lumotlarni olgan xolda, tinglovchining bilim va ko‘nikmalarini kerakli vaqt oralig‘i va bilimlar kesimida taxlil qilishni asoslab beradi.

10. Teacher managers/mentors. Auditoriyadagi o‘qituvchining roli “markaziy” shaxsdan “xamkor” shaxsga o‘tishi: bunda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan yo‘riqnomalar dars mobaynida yo‘l boshlovchi rolida bo‘lishini axamiyatli omil sifatida ta’kidlab beradi. Darsni va resurslarni to‘g‘ri taqsimlanishi, xamda sherikchilik muxitini kuchaytirishga imkon beradi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarda bevosita yoki bilvosita tariqada AKTlar, Internet va uning imkoniyatlari qo‘llanilishi nazarda tutilgan; ularni bilish va muqobil foydalanish esa, o‘z navbatda, pedagogda AKT kompetentligini shakllantirilishi asosi xisoblanadi.

3D Internet texnologiyasi. Oxirgi yillarda ta’lim tizimida zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanishga, xususan multimedia asoslangan texnologiyalarga alohida e’tibor berilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimiga ham o‘z ta’siri ko‘rsatibgina qolmasdan, uni tashkillashtirishning asosiy instrumentiga aylanib qolmoqda. Misol qilib oladigan bo‘lsak, eng tez rivojlangan va yuqori samara ko‘rsatgan ta’lim texnologiyalari axborot kommunikatsiyalar asosida tashkillashtirilgandir. Masalan, Cloud Computing, Mobile Learning, Tablet Computing, Open ContentLearning, Analytic Learning, Virtual and Remote Laboratories.

XXI asr ta’lim tizimi bevosita internet va multimedia texnologiyalari bilan bog‘langan. Oxirgi o‘n yillikda internet tarmog‘ida juda yuqori samaradorlikka

erishilgan bo'lsa, multimedia texnologiyalarining ham keskin rivojlanishi va internet bilan integrallashuvi uning imkoniyatini yanada boyitmoqda.

Kelajak tarmoqlarini qurish konsepsiyasining bugungi dolzarb masalalari ichida 3D Internet tarmog'ini qurish va uni xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llash muhim o'rinn tutadi (1.2-rasm). 3D Internet texnologiyasi sanoat, ishlab chiqarish, fan-texnikalar uchun, ularning yanada taraqqiy topishi uchun yangi bir davrni ochib beradi. Ulkan imkoniyatlar yaratadi. Dunyoning turli chetlaridagi rivojlanishlarning boshqa chetlariga tadbiqini va samaradorligini virtual boshqarish imkonini beradi.

Shuni hisobga olgan holda, 3D Internet texnologiyasining ta'lim tizimida qo'llash va undan kutilgan natijalar to'g'risida yoritamiz.



1.2-rasm. 3D Internet konsepsiysi

3D Internet texnologiyasi internet va 3D grafika texnologiyalarining integratsiyalashuvi bo'lib, uning natijasida internet orqali interaktiv 3D kontent real vaqt rejimida veb xizmat ko'rinishida yuboriladi. Web 3.0 konsepsiysi asosida rivojlantirilayotgan ushbu texnologiya internet yordamida virtual olam yaratish imkonini beradi. 3D Internet bir qator afzalliklarga ega: Tarmoq foydalanuvchilari virtual birlashtiriladi va boshqariladi;

- Masofa ahamiyat kasb etmaydi, hamma bir-biri bilan virtual yagona joyda, fazoda joylashadi;
- Kontent har bir foydalanuvchi o'zi boshqarishi mumkin;
- Istalgan tarmoq foydalanuvchi boshqa tarmoq foydalanuvchisiga bevosita interaktiv ta'sir o'tkazishi mumkin.

Ushbu texnologiyani tashkillashtirish uchun 3D kamera va yuqori tezlikli internet talab qilinadi.

Ushbu texnologiyani ta'limda qo'llash masofaviy ta'limdagi talaba va universitet o'rtasidagi to'siqni yo'qotish va dars jarayonini virtuallashtirish

imkonini beradi. Dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan talabalarni yagona ta’lim olish muhitiga birlashtirish va o‘qituvchining ishslash samaradorligini oshirish imkoniyatini ta’minlaydi.

Ushbu texnologiya asosida virtual multimedia ta’lim muhiti yaratiladi.

3D Internet texnologiyasi asosida virtual ta’lim tizimini tashkillashtirish quyidagi ta’lim va tadqiqot turlarini tashkillashtirish imkonini beradi:

- Dunyoning istalgan virtual universitetlariga a’zo bo‘lish va dasrlarida qatnashish;

- Virtual masofaviy ta’lim;
- Virtual ekskursiyalar tashkillashtirish;
- Virtual tadqiqotlar olib borish;
- Virtual kitob va qo‘llanmalar harid qilish;
- Virtual seminarlar va konferensiyalar tashkillashtirish;
- Virtual ishchi guruxlar tashkillashtirish va loyihalarni bajarish va boshqalar.



1.3-rasm. 3D Internet virtual ta’lim tizimi

Sanab o‘tilganni tashkillashtirishning yagona vositasi sifatida 3D Internet texnologiyasi hizmat qiladi. Ta’kidlash joizki, ushbu xizmatlarni ta’minlovchi yagona interaktiv, real vaqtli 3D multimedia tarmoq platformasi tashkillashtirish talab etiladi. Foydalanuvchi tomonida ham 3D kamerani o‘z ichiga olgan ma’lum qurilmalar to‘plami bo‘lishi zarur.

3D Internet texnologiyasini ta’lim tizimida qo‘llash quyidagi yutuqlarni beradi:

- virtual masofaviy ta’limni tashkillashtirish;
- ta’lim olish uchun ketadigan harajatlarni kamaytirish, yo‘l harajatlarini qisqartirish;
- cheksiz talabalar auditoriyasini shakllantirish va butun dunyo bo‘ylab onlayn darslar olib borish;
- virtual ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish va ularga butun dunyo bo‘ylab yetakchi olim va mutahassislarini jalb qilish;
- yangi ilmiy yangiliklarni interaktiv virtual kuzatish va takliflar bildirish;
- va albatta konferensiya va semenarlarda virtual ishtiroy etish.



1.4-rasm. 3D Internet orqali virtual tadqiqtolar olib borish

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’limda 3D Internet texnologiyasini qo’llash ta’lim sifatining yanada o’sishiga, zamonaviy ta’lim turlarining keskin rivojlanishiga, xalqning savodxonlik darajasining ortishiga va asosiysi davlatning yanada taraqqiy topishiga katta hissa qo’shadi.

1.2. Kompyuterni o‘qitish vositalarini yaratish va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan talablar.


O‘quv jarayonini masofaviy yoki elektron shaklida tashkil etish uchun ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar **LMS (Learning Management Systems)** ishlatiladi.

LMS tizimlari elektron ta’limni tashkil etishning asosiy funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Bunday funksiyalarga o‘quvchilarning (o‘qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqa roldagilarni) ro‘yxatga olishi, foydalanuvchilarni o‘quv kurslardan chetlashtirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish muhitini yaratish, o‘quvchi va o‘qituvchilarning o‘zaro individual yoki guruh bo‘lib hamkorlikda ishlashini tashkil etish, guruhlar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga yopiq turdag'i test, ochiq turdag'i nazorat, moslikni topishga oid, ketma-ketlikni to‘g‘ri joylashtirish, bo‘s sh qoldirilgan joyni to‘ldirish va boshqa turlari kiradi), har-xil turdag'i ijtimoiy so‘rovlari tashkillashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar (diplomlar) berish imkoniyati, elektron axborot resurslarini (elektron kutubxonalar) tashkillashtirish, elektron o‘quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari, tizim foydalanuvchilarining (o‘quvchilar, o‘qituvchilar (tyutorlar), kurs yaratuvchi pedagoglarning) tizimga qachon, qancha vaqt davomida o‘quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi IP adres orqali kirganligini (bu esa qaysi davlatdan tizimga kirganligini aniqlashga yordam beradi), brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud fodalanuvchilarning aktivligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati, o‘qituvchi (tyutor) (yoki elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan elektron o‘quv resurslarni yaratishi, Authoring toolslarda

SCORM, TinCan yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan elektron o‘quv resurslarini yuklashi, o‘quvchilarning boshqa o‘quvchilar/o‘qituvchilar bilan (Chat, Forum, videokonferensiya, umumiylashtirish modullari) muloqatini tashkillashtirish, o‘quv jarayonida bo‘ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi, iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o‘tish mumkin.

Qo‘yida masafaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo‘yicha ma’lumotlarni bayon qilamiz.

Atutor - Ochiq kodli ta’lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o‘qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va boshqa modullari mavjud. Tizim bir nechta standartlarni qo‘llab quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan o‘quvchi talabalar tizim orqali o‘quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan ko‘zi ojiz talabalar maxsus veb ilovalar orqali tizimga bog‘langan holda o‘quv kontentdagi so‘zlarni audio formatda o‘tkazgan holda tinglashi mumkin. O‘quv modulini yozish vaqtida Atutor dasturiy majmuasining barqaror versiyasi



1.5-rasm. AtutorLMS tizimi

Claroline – Erkin va ochiq kodli masofaviy o‘quv kurslarni tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi Webga oriyentatsiyalangan dasturiy majmua hisoblanadi. Tizim Luvenadagi (Belgiya) katolik universitetining pedagogika va multimedia institutida yaratilgan. Dasturiy majmuadan foydalanish GNU (General Public License) asosida amalga oshiriladi ya’ni bepul foydalanish mumkin. Tizim ishlashi uchun serverda PHP/MySQL/Apachelarni o‘rnatalishi talab qilinadi. Windows 98 va NT, Mandrake Linux 8.1 muhitiga o‘rnatalgan EasyPHP tizimda tizim testdan o‘tkazilgan. **Claroline** dasturiy majmuasidan **80** dan ortiq davlatlarda foydalanishadi va **30** dan ortiq tillarga (dastur interfeysi) tarjima qilingan. Tizim **2000** dan ortiq talabalarni bir vaqtning o‘zida qabul qilishi mumkin.

Claroline dasturiy majmuasi masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish uchun talab qilinadigan barcha talablarga javob beradi xususan, foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish, tizimda foydalanuvchilarning (fan o‘qituvchisi, o‘quvchi va mehmon) rollarini administrator tomonidan belgilashi, o‘quv kurslarni yaratish, ularning tarkibini tahrirlash, talabalar bilimini nazorat qilish, monitoring olib borish, nazorat natijalarini tahlil qilish, tizim ichida foydalanuvchilar o‘rtasida

kommunikatsiya elementlaridan (chat, forum, qisqa xabarlar jo‘natish modullaridan) foydalanish va boshqarish imkoniyatini beradi.

Tizimda boshqa LMSlar singari qo‘yidagi ko‘rsatilgan o‘qitish modullari mavjud: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work , Student tracking, Kalendar, Viki va boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS va SCORM standartlarni qo‘llab quvvatlaydi.


O‘quv modulini yozish vaqtida tizimning barqaror versiyasi Claroline Tizimning rasmiy internet manzili: <https://claroline.net/>



1.6-rasm.ClarolineLMS tizimi

Dokeos - Clarolinening 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi. Dokeos Claroline platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruhning bir necha a’zolarining ish mahsuli bo‘lib, ular ta’lim muassasalari uchun yaratilgan Clarolinedan farqli ravishda davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi. Dokeos dasturiy majmuasining rasmiy Web saytiga tashrif buyursangiz, u yerda dasturning 2 ta versiyasini ko‘chirib olishni taklif qilinadi: **Dokeos FREE** – bepul va **Dokeos PRO** – bepul bo‘lmagan, qo‘shimcha modullari mavjud bo‘lgan dastur paketi taklif etiladi. Lekin Dokeos FREE versiyasi bizning fikrimizga ko‘ra, ta’lim jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo‘ladigan barcha o‘quv modullari mavjud. Tizimning imkoniyatlarini va unda mavjud o‘quv elementlarni qo‘yida ko‘rsatilgan aql xaritasi orqali ko‘rish mumkin. Rasmdan ko‘rinib turganidek, tizimda mavjud o‘qitish modullarini ta’lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtida LMS larining ko‘pchiligi ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud g‘oya asosida o‘zlarining ishchi muhitlarini shunday tarmoqlarga moslashtirmoqda. Shunga ko‘ra, bu tizimda ham ijtimoiy tarmoq elementlari keng kiritilgan. Yuqorida keltirilgan LMS tizimlari singari Dokeos dasturiy majmuasi ham SCORM standartini qo‘llab quvvatlaydi. Bu esa bu standartni qo‘llab quvvatlaydigan boshqa LMS tizimlariga o‘quv kurslarini eksport/import qilish imkoniyatini beradi. Dokeos dasturiy majmuasi o‘quv modulini yozish vaqtidagi oxirgi barqaror versiyasi Dokeos 2.2 RC2.


Tizimning rasmiy internet manzili: <https://www.dokeos.com/>



1.7-rasm.DokeosLMS tizimi

LAMS IMS Learning Design standarti asosida 2003 yilda yaratilgan. JAVA dasturlash tilida yozilgan. Kross-platformali, **32** tilga dastur interfeysi tarjima qilingan va GPLv2 asosida bepul foydalanish mumkin. LAMS dasturiy majmuasi boshqa LMS lardan farqi shundaki, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini strukturalashda vizual vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu vositalar o‘quv jarayonida o‘quv resurslarini (elektron o‘quv resurslar, chat, so‘rovnomalar, topshiriqlar) va nazorat turlarini qanday ketma-ketlikda bo‘lishligini vizual ko‘rinishini ta’minlaydi. Bunda o‘qituvchi “sinchqoncha” orqali bu ketma-ketliklarni hech qanday qiyinchiliklarsiz joylarini o‘zgartirishi mumkin bo‘ladi. LAMS – elektron o‘quv resursini vizual ravishda o‘quv kontentlarni o‘zgartirish boshqarish va yaratishdagi imkoniyatlarining mavjudligi sababli, yangi revolyusion ilova hisoblanadi. U o‘qituvchiga o‘quv kontentini yaratishda intuitiv tushunarli interfeys taqdim qiladi. Bu interfeys o‘z ichiga har-xil individual vazifalar, guruhli o‘qitishda frontal vazifalarni berishini o‘z ichiga oladi.

Tizimning rasmiy internet manzili: <https://www.lamsfoundation.org/>



1.8-rasm.LAMSLMS tizimi

Moodle – Web muhitida o‘qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o‘qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work , Student tracking va ancha ko‘p bo‘lgan boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo‘llab quvvatlaydi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko‘p qo‘sishimcha pligin va modullari mavjud bo‘lgan dasturiy majmua aynan, moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida dunyoning ko‘p davlatlarining o‘quv muassasalarida

masofaviy ta’lim jarayonini aynan **Moodle** dasturiy majmuasidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda.

O‘zbekistondagi ko‘plab ta’lim muassaslarida aynan virtual ta’lim muhitni sifatida aynan **Moodle** dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda.

Web-texnologiyalar, uning xususiyatlari va ta’lim jarayonida foydalanish.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari internet texnologiyalari va xizmatlari bilan bog‘langan. Internet taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalari **Web 2.0, bulutli texnologiyalariga, OETR va OOKlarga** asoslangan kompyuter tarmoqlari jamoaviy muloqotning eng asosiy universal vositasiga aylanib borayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda inson qanday ilm olayotgani va bilimlarini qanday oshirayotganini ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ta’lim tizimi oldida elektron axborot muhitida maxsus ko‘nikma va malakalarga ega, raqobatbardosh shaxslarni voyaga yetkazish vazifalari turadi.

Hozirgi kunda internet texnologiyalarining rivojlanishi **Web 2.0** va **Web 3.0** kabi texnologiyalarning yaratilishiga asos bo‘lmoqda¹.

Web 1.0 texnologiyasi 1999 yilgacha foydalanilgan, uning asosiy funksiyalarini gipermurojatlar hamda veb-sahifalar bajargan. Internet rivojlanib boshlaganda uning asosiy yutug‘i foydalanuvchilarining axborot almashishilarini tashkil etish bo‘lgan. Tarmoq takomillashtirilib foydalanuvchilar uchun zarur axborotlarni aniq va oson topish imkonlarini beruvchi uskunalar ishlab chiqildi. Umumiy olganda **Web 1.0** ni passiv ma’lumotli WWW – butun dunyo o‘rgumchak to‘rining “o‘qiluvchi” iborasi bilan tavsiflash mumkin. Web 1.0 bu foydalanuvchilar uchun o‘z fikr va mulohazalarini kiritish imkonini mavjud bo‘lmagan, passiv holatda axborot olishi mumkin bo‘lgan axborot portalidir.

Internetning qo‘llanilish doirasi Web 2.0 texnologiyasi ostida birlashuvchi yangi texnologiyalar hisobiga ham doimiy kengayib bormoqda. YA’ni Web 2.0 ning Web 1.0 dan eng muhim farqi uning kontentini xamma yarata oladi. Ijtimoiy servislari – Web 2.0 tarmog‘ining nomidir. Ijtimoiy ta’mintonning yangi servislari materiallarni yaratish va ularni tarmoqda nashr qilish jarayonlarini soddalashtirdi. Bugungi kunda Web 2.0 texnologiyalardan foydalangan holda millionlab odamlar tomonidan yangi kontent yaratilmoqda. Umumiy olganda Web 2.0 texnologiyasi interfaol ma’lumotli WWW – butun dunyo o‘rgumchak to‘rining “yoziluvchi” iborasi bilan tavsiflash mumkin.

Web 2.0 texnologiyalar yordamida quyidagi jamoaviy faoliyatni amalga oshirish mumkin:

- Hamkorlikda qidiruv.
- Zakladkalarni hamkorlikda saqlash.
- Media materiallarni (fotosuratlar, videotasmalar, audiotasmalar) hamkorlikda yaratish va ishlatish.
- Gipermatnlarni hamkorlikda yaratish va tahrir qilish.
- Tarmoqda hujjalarni, elektron jadvallar, prezantatsiyalar (taqdimotlar) va boshqa hujjalarni hamkorlikda yaratish, tahrir qilish va foydalanish.

Web 2.0 texnologiyalarning qulayligi ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir

¹ Tim O'Reilly. What Is Web 2.0? Design Patterns and Business Models for the Next Generation of Software. 09/30/2005

ko‘rsatadi. Bunday texnologiyalar ta’lim oluvchilarga xamkorlikda o‘qish usullarini tanlashga imkoniyat beradi. Ular birgalikda ishslash usullarni tanlaydilar, shuningdek, tajriba olish va almashish maqsadida turli ijtimoiy tarmoq jamoalarida qatnashish imkoniyatini beradi. Blog, viki, delishes, youtube servislari yaxshi didaktik xususiyatlarga ega. Xizmatlarning afzalligi, bu ularning qulayligi, do‘stonaligi va bepulligidir.

Web 3.0 texnologiyalarda Internetdagi axborotlarning o‘zaro yangicha bog‘lanishi masalasi qaraladi. Web 2.0 texnologiyasida qidirish kalit so‘zga asoslanadi. YA’ni biror so‘z yoki ibora, masalan, “Informatika” kalit so‘zi asosida qidirilganda tarkibida “Informatika” so‘zi mavjud bo‘lgan barcha kontentlarni taqdim etadi. Web 3.0 texnologiyasida esa bunday qidirish jarayoni ikkinchi qadamga o‘tkazadi. Web 3.0 semantik texnologiyaga asoslanadi, uning ko‘rinishigini emas, balki uning nimaligini ham ifodalaydi. Umumiy olganda Web 3.0 texnologiyasini “mashina-mashina” usulidagi o‘zaro munosabat va interfaol xizmatlar, dinamik ilovalar WWW – butun dunyo o‘rgumchak to‘rining “bajariluvchi” iborasi bilan tasniflash mumkin. Web 3.0 – bu kelajakka yo‘naltiriluvchi semantik tarmoqdir. Web 3.0 da kompyuterlar axborotlarni odamlar kabi talqin qilish, intellektual shakllantirish va foydalanuvchilar uchun zarurlarini aniqlash va tarqatish imkoniga ega bo‘ladi.

Google asbob-uskunalari va xizmatlari - Google apps - Web 2.0 texnologiyalariga misol bo‘ladi.

Google asbob-uskunalari va servislaridan foydalanish o‘quv jarayonini va axborot ta’lim maydonini loyihalashtirish imkoniyatini beradi. Veb muhitida **Google Disk**, **Google Hujjatlar** (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari), **Google taqvim** (kalendar), **Google** formalari (so‘rovnomalar yaratish), **Google Hangouts** (Messenger) **Google+**, **Google Blogger** (saytlar yaratish) orqali o‘quv jarayonini tashkillashtirish, boshqarish o‘quv jarayoni sifatini oshirishga sabab bo‘ladi.



Google Docs - Google xujjatlar (Google jadval, Google Forma, Google hujjat, Google taqdimot, Google rasm) deb umumiy nomlanib, uning ichiga matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharrirlarni kiritish mumkin. Bir vaqtda bir hujjat ustida bir necha foydalanuvchi ishlashi mumkin bo‘ladi.

Foydalanuvchilar dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan internet tarmog‘i orqali ularga taqdim etilgan hujjat ustida ishslashlari mumkin bo‘ladi.

Google taqvim (kalendar) vaqtingizni rejalshtirishda, o‘quv dars jadvalini tuzishda va talabalar bilan qayta topshirish vaqtлari, majlis va konferensiylar, tug‘ilgan kunlarni eslatib turish va boshqa imkoniyatlari mavjud. Google taqvim sizning mobil telefoniz bilan ham integratsiyalashi mumkin. Google taqvimni bir o‘zingiz yoki guruh bo‘lib shakllantirishingiz mumkin bo‘ladi.



Google blogger yordamida o‘zingizning shaxsiy saytingizni (blogingizni) yaratishingiz mumkin. Masalan tarix o‘qituvchisining shaxsiy sayti. Bu yaratilgan sayta o‘zingizning ilmiy-uslubiy ishlaringizni joylashtirishingiz,



Google Calendar

talabalarga o‘zingizning faningiz bo‘yicha o‘quv majmualarni maxsus bo‘lim ochib yuklab qo‘yishingiz mumkin. Fan bo‘yicha bo‘layotgan ilmiy yangiliklarni berib borishingiz, so‘rovnomalar o‘tkazishingiz mumkin bo‘ladi.


Google Hangouts – kommunikatsiya elementi bo‘lib, video, audio va kichik xabarlar yuborish imkoniyatini beruvchi servis hisoblanadi. Google Hangouts orqali siz vebinarlar tashkillashtirishingiz mumkin.

Google apps ilovalari bepul bo‘lib hech qanday litsenziya talab qilmaydi.

Google Docs tizimida hujjatlar yaratish va ular ustida ishlash uchun gmail.com pochtasidan ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lishkerak. **Google Docsda** yaratilgan hujjatlar bilan tanishishingiz uchun pochtangiz aynan gmail.com bo‘lishi shart emas.


Google Docs bilan ishlashni boshlash uchun gmail.com pochtasiga kirish kerak.

Google Disk – bu shaxsiy hujjatlaringizni saqlash imkoniyatini beruvchi virtual disk hisoblanadi. Unga kirish bu rasmda ko‘rsatilgan **Diskni** bosish orqali amalga oshiriladi.



1.9-rasm. Google Diskni ishga tushirish

Virtual diskda joylashgan hujjatlarga Siz o‘zingiz ko‘rish (tahrirlash, sharhlar berish) huquqlaridan kelib chiqqan holda boshqa foydalanuvchilar bilan o‘rtoqlashishingiz mumkin. Shuningdek Sizga boshqa foydalanuvchi tomonidan berilgan hujjatlarni ko‘rishingiz (tahrirlashingiz, sharhlar berishingiz) mumkin bo‘ladi.



1.10-rasm. Google Diskni ko‘rinishi

Google Diskda biror bir hujjatni yaratish uchun “**Sozdat**” tugmasini bosish kerak. **GoogleDocs** orqali siz:


- matnlar bilan ishlaydigan hujjatni;
- taqdimotlar yaratish imkoniyatini beruvchi hujjatni;
- elektron jadvallar yaratish imkoniyatini beruvchi hujjatni;
- so‘rovnomalalar o‘tkazish imkoniyatini beruvchi hujjatni;
- rasmlar bilan ishslash imkoniyatini beruvchi hujjatlarni yaratish imkoniyatini beradi.

“**Google Dokumenti**” tugmasini bosganigizdan keyin MS Word hujjatining interfeysiga o‘xshagan hujjat paydo bo‘ladi. Bu hujjat ustida siz matnlarni tahrirlashingiz va saqlashingiz mumkin bo‘ladi. Bu muharrirda ishslashingiz uchun sizdan faqat internet va brauzer bo‘lishi talab qilinadi.

GoogleDocs – eng asosiy imkoniyatlaridan biri bu bir hujjat ustida bir nechta foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida sinxron yoki asinxron ko‘rinishda ishlashi mumkin. Bir nechta foydalanuvchilar yaratilgan bir hujjat ustida ishslashlarini tashkillashtirishingiz uchun hujjatning yuqori o‘ng tomonida “**NASTROYKI DOSTUPA**” tugmasini bosishingiz kerak bo‘ladi.

Googledocs hujjati yaratilganda avtomatik ravishda hujjat yaratuvchisigagina hujjat ustida ishslash huquqi beriladi. Lekin hujjat ustida ishslash huquqini o‘zgartirish mumkin.

Googledocs yaratilgan hujjatlar ustida ishslashning 3 pog‘onali dostupi mavjud.



1.11-rasm. Google docs bilan hamkorlikdaishlash

1. Internetda hamma uchun yaratilgan hujjatga dostup ochiq bo‘ladi.

Bunda foydalanuvchi yaratilgan hujjat ustida ishlay oladi. Ishlay olish huquqlari tahrirlovchi, izoh qoldiruvchi (izoh qoldiruvchi faqat izoh qoldiradi o‘zgartirishlar krita olmaydi) va faqat o‘qish.


2. Bu usul orqali faqat kimda hujjatning havolasi (ssilkasi) mavjud bo‘lsagina qo‘yida keltirilgan huquqlarda ishlashi mumkin:

- “tahrirlovchi”;
- faqat kommentariya (izoh) koldiruvchi;
- faqat o‘qish imkoniyati bilan hujjatdan foydalanish.

3. Hammaga, faqat lokal holda tanlangan foydalanuvchiga taklif junatilgan holdagina hujjatni tahrirlashi, faqat izoh qoldirishi yoki faqat o'qishi mumkin bo'ladi.

Ikkinci turdan farqi shundaki bu yerda aynan **gmail** da pochtasi bor bo'lgan foydalanuvchining elektron pochtasi kiritilgan holda unga tahrirlovchi rolini berish mumkin bo'ladi.

Hujjat ustida ishlash vaqtida bir hujjat ustida ishlayotgan foydalanuvchilarni qo'yida ko'rsatilgan rasmdagi ko'rib turishingiz bo'ladi.



1.12-rasm. Google docs bilan hamkorlikda ishlashni ko'rish

YA'ni bir vaqtning o'zida kim nima ustida ishlayotganini ko'rib turish mumkin bo'ladi.

Hujjat ustida ishlash vaqtida siz izohlar qoldirishingiz mumkin. Kiritilgan o'zgarishlar tarixini ko'rishingiz ham mumkin.

Agar sizning kompyuteringizda Word muharirida oldin yaratgan fayl mavjud bo'lsa, uni ham shu DISK ga yuklashingiz mumkin va undan keyin bu hujjat ustida bir necha foydalanuvchilarni birgalikda ishlashga jalb etishingiz mumkin bo'aldi.

Nazorat savollar:

1. Axborot tizimi tushunchasiga sinkveyn yozing.
2. Axborot tizimi ta'minotlarini sanab bering.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini sanab bering. Har biriga misollar keltiring.
4. LMS (Learning Management Systems) deganda nimani tushunasiz?
5. LMS tizimlariga misollar keltiring.
6. Qanday qilib ta'lim jarayonida LMS tizimlaridan foydalanish mumkin? Misollar keltiring.
7. AKT sohasi rivoji va globallashuv jarayoni o'rtasidagi munosabatni tushuntiring.
8. Ta'limni axborotlashtirish sohasining rivojlanishida global tendensiyalarni keltirib o'ting.
9. Zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalariga misollar keltiring. Ularning didaktik imkoniyatlarini ochib bering.
10. O'quv-tarbiya jarayonida web 2.0 va web 3.0 texnologiyalarini ko'llash bo'yicha misollar keltiring.
11. 3D Internet texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?

12. 3D Internet texnologiyasining ta’limda qo‘llanilishi va istiqbollari nimalardan iborat deb hisoblaysiz?
13. Virtual ta’lim tizimi deganda nimani tushunasiz?
14. 3D Internet texnologiyasini qo‘llash yutuqlari sifatida yana nimalarni keltirish mumkin?
15. Boshqa internet ta’lim texnologiyalari va ularning 3D Internet texnologiyasi bilan qiyosiy tahlilini keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
2. Tursunov S.Q. Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
3. Корытова Н.Ye., Лоскутова В.I. Использование дистанционных технологий в повышении квалификации педагогических кадров // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2014.- №9(137). – С.38-42. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=22289245>
4. Elektron ta’lim bo‘yicha V.S.Xamidovning shaxsiy blogi <http://elearning.zn.uz/>
5. **Kaatrakoski H., Littlejohn A., Hood N.** Learning challenges in higher education: an analysis of contradictions within Open Educational Practice // Higher Education. – 2017. – Vol. 74, Issue 4. – P.599–615. DOI: <http://doi.org/10.1007/s10734-016-0067-z>
6. Krechetnikov K. G. Sotsialnye setevye servisy v obrazovanii / K. G.Krechetnikov, I. V. Krechetnikova / Tixookeanskiy voenno-morskoy institut imeni S.O. Makarova. – [http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3\(39\)_45.pdf](http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3(39)_45.pdf)
7. Nurmuxamedov G.N. Elektronnye uchebnye kursy: potrebnosti obrazovaniya, proektirovanie, razrabotka, problemy i perspektivnye //Informatika i obrazovanie.-2012.-№1.
8. Rastamxanova S. N., Fazletdinova A. R., Xafizova R. R. «Oblachnoe xraniliще dannyx» v dokumentovedcheskom aspekte // Molodoy uchenyyu. – 2016. – №26. – S. 81-83.

2-ma’ruza. Buyumlar interneti (Internet of Things (IoT))(2 soat)

Reja:

- 2.1. Buyumlar interneti (Internet of Things (IoT)): asosiy tushunchalar.
- 2.2. Buyumlar internetining asosiy tashkil etuvchilar.
- 2.3. Buyumlar interneti texnologiyalari.
- 2.4. Buyumlar internetida foydalaniladigan ilovalar.

Tayanch iboralar: *Buyumlar interneti, Industry 4.0, 3D-bosma, Cisco, Data Matrix, QR kodlar, ZigBee, Wirelesshart, MiWi, 6LoWPAN, LPWAN, aqli uy, Apple HomeKit, Apple Watch.*

2.1. Buyumlar interneti (Internet of Things (IoT)): asosiy tushunchalar.

Buyumlar interneti (inglizcha: Internet of Things, IoT) – bu bir-biri bilan yoki tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish uchun o‘rnatilgan vositalar va texnologiyalar bilan jihozlangan jismoniy obyektlar (“narsalar”) o‘rtasida ma’lumotlarni uzatish tarmog‘i tushunchasi. Taxminlarga ko‘ra, bunday tarmoqlarni tashkil etish iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni qayta qurish, ba’zi harakatlar va operatsiyalarda inson ishtirokiga bo‘lgan ehtiyojni yo‘q qilishga qodir.



2.1-rasm. Buyumlar interneti elementlari

Konsepsiya 1999-yilda jismoniy obektlarning bir-biri bilan va tashqi muhit bilan o‘zaro tao‘siri uchun radiochastotani identifikatsiyalash vositalarini keng qo‘llash istiqbollarini tushunish sifatida shakllantirilgan. Konsepsiyanı xilma-xil texnologik mazmun bilan to‘ldirish va uni amalga oshirish uchun amaliy yechimlarni joriy etish 2010-yillardan boshlab axborot texnologiyalaridagi barqaror tendensiya hisoblanib kelinmoqda, birinchi navbatda, simsiz tarmoqlarning keng tarqalganligi, bulutli hisoblashning paydo bo‘lishi, mashinasozlikning rivojlanishi, mashinalar bilan o‘zaro ta’sir qilish texnologiyalari va IPv6ga faol o‘tishning boshlanishi va dasturiy ta’milot bilan aniqlangan tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog‘liq.

Uning tushunchasi va atamasi birinchi marta Massachutets texnologiya instituti qoshidagi Auto-ID Labs tadqiqot guruhi asoschisi Kevin Eshton tomonidan 1999-yilda **Procter & Gamble** boshqaruvi uchun taqdimotda ishlab chiqilgan. Taqdimotda RFID (angl. Radio Frequency Identification - radio signallari yordamida ma’lumotlar o‘qiladigan yoki yoziladigan obyektlarni avtomatik identifikatsiyalash usuli) teglarini keng qamrovli tatbiq etish korporatsiyada ta’milot zanjirini boshqarish tizimini qanday o‘zgartirishi mumkinligi haqida so‘z yuritilgan.

2004-yilda “Scientific American” jurnali “buyumlar interneti”ga bag‘ishlangan konsepsiyaning maishiy foydalanishdagi imkoniyatlarini

ko‘rsatadigan keng maqola chop etdi: maqolada maishiy texnika (budilnik, konditsioner), uy tizimlari qanday ishlashini ko‘rsatadigan illyustratsiya berilgan. Unda (bog‘ sug‘orish tizimi, xavfsizlik tizimi, yoritish tizimi), sensorlar (termik, yorug‘lik va harakat sensorlari) va “buyumlar” (masalan, identifikatsiya yorlig‘i bilan ta’minlangan dorilar) aloqa tarmoqlari (infraqizil, simsiz, quvvat va boshqalar) orqali bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qilishi (past kuchlanishli tarmoqlar) va jarayonlarning to‘liq avtomatik bajarilishini ta’minlashi (qahva qaynatkichni yoqing, yoritishni o‘zgartiring, dori ichishni eslating, haroratni saqlang, bog‘ni sug‘oring, energiyani tejang va uning sarfini boshqaring) barchasi qamrab olingan edi. Uyni avtomatlashtirishning taqdim etilgan variantlari o‘z-o‘zidan yangi emas edi, ammo nashrda qurilmalar va “buyumlar”ni Internet protokollari tomonidan xizmat ko‘rsatadigan yagona kompyuter tarmog‘iga birlashtirishga urg‘u berildi va “buyumlar interneti”ni alohida jarayon sifatida ko‘rib chiqdi. Hozirda bu tushuncha keng ommalashmoqda.

2008-yildan 2009-yilgacha bo‘lgan davrni Cisco tahlilchilari “buyumlar internetining haqiqiy tug‘ilishi” deb hisoblashadi, chunki ularning hisob-kitoblariga ko‘ra, aynan shu davrda global tarmoqqa ulangan qurilmalar soni aholi sonidan oshib ketgan.

2009-yildan beri Yevropa Komissiyasi ko‘magida har yili Bryusselda “Internet of Things” konferensiyasi bo‘lib o‘tdi, unda Yevropa komissarlari va Yevroparlament deputatlari, Yevropa davlatlarining hukumat amaldorlari, kompaniyalar rahbarlari, SAP, SAS instituti, Telefónica kabi yirik universitetlar va tadqiqot laboratoriylarining yetakchi olimlarining hisobotlari taqdim etiladi.

2.2. *Buyumlar internetining asosiy tashkil etuvchilari.*

Raqamli axborotga asoslanadigan asosiy texnologiyalardan biri bu – buyumlar internetidir. YA’ni, ko‘plab maishiy uskunalar elektr tarmog‘iga ulanganligi odatiy, lekin ikkinchi darajali hisoblanadi, moddiy dunyoning tobora ko‘plab obektlari internetga ulanmoqda, bu esa axborot to‘plash va hatto bu obektlarni masofadan turib boshqarishni ham ta’minlamoqda. Amalda internetda tashqi dunyo va obyektning turli ko‘rsatkichlaridan iborat bo‘lgan jismoniy obyektning virtual nusxasi paydo bo‘lib, ushbu obyektni internet orqali boshqarishga imkon bermoqda. Buyumlar internetiga misol qilib, masalan, texnik yordam hizmatida aniqlangan buzilishlar va rejadan tashqari ta’mirlash doirasida almashtirish lozim bo‘lgan ehtiyyot qismlar ro‘yxatini yuboradigan virtual ma’lumotlar uzatish tizimini keltirib o‘tish mumkin. Shubhasizki, raqamli iqtisodiyot robototexnika bilan chambarchas bog‘liq. Robotlarning insonlar hayotidagi ishtiroki fantastik jarayonlar tomonidan ko‘p marta muhokama qilingan, lekin hozirda robotlar bizning real hayotimizga kirib kelmoqda. Odamlar ishlab chiqarishda bajaradigan oddiy funsiyalarni ularning o‘rniga bajarish xatolar sonini kamaytirish hamda ishlarni bajarish tezligini oshirishga imkon beradi. Sir emaski, ko‘plab sanoat kompaniyalari yig‘uv liniyalari va logistikada robototexnikani faol qo‘llaydi, bu inson omilining ahamiyatini pasaytirish va minimal sonda odamlar jalb qilishga imkon beradi.

Sanoat robotlari qiymatini (bahosini) pasaytirish ularni qo‘llashdan iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini yaratadi va odamlar amalda qanday qilib

mexanizmlar avtomatik rejimda inson ishtirokisiz mahsulot ishlab chiqarishini kuzatib turishiga to‘g‘ri keladi, xolos. Germaniyada hattoki Industry 4.0 atamasi ham paydo bo‘lgan bo‘lib, u avtomatlar ishlab chiqarish jarayoni doirasida o‘zaro aloqa qiladigan to‘liq avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish va logistika tarmoqlari tuzishni ko‘zda tutadi. Robototexnika, buyumlar Interneti, sun’iy intellekt va 3D bosmaning uyg‘unlashuvi hozirgi paytda krossovkadan tortib avtomobilgacha bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha to‘liq mexanizasiyalashgan fabrikalar qurishga imkon bermoqda.

Buyumlar interneti virtual dunyoni real dunyo bilan birlashtirishga imkon beradi, sun’iy intellekt esa buyumlar Internetidan olingan juda katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamlari asosida xulosalar va qarorlar shakllantirishi mumkin. To‘ldirilgan va virtual reallik yangi dunyoni inson ko‘ziga ko‘rinadigan qilib qo‘yadi. Robototexnika va 3D-bosma esa ko‘plab muntazam bajariladigan operatsiyalarni avtomatlashtirishga imkon beradi. Hozirgi paytda biz insoniyat va jamiyat hayotining texnologiyalar bilan boyishining yanada kuchayishiga jonli guvoh bo‘lib turibmiz.



2.2-rasm. Industry 4.0 vositalari

Informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar nafaqat zamonaviy insonning yashash tarzi bo‘lib qoldi, balki, u zamonaviy biznes jarayonlarni tashkil qilish uchun zaruruiy bo‘lgan texnologik platforma ham bo‘lib qoldi. Smartfonlarning faol rivojlanishi, gadgetlar uchun (layfflogging tizimlari va devayslar) mobil ilovalar hosil bo‘lishi hozirning o‘zidayoq inson hayotining turli jihatlarini tezkor kuzatish, belgilash, fiksatsiya qilish va saqlashga imkon beradi. Bular doimiy kontaktlar ruyhati, ish funksiyalarining ketma-ket bajarilishi, bank transaksiyalarini bajarish, oxirgi haridlar haqidagi ma’lumotlardan boshlab to insonning fizik va emotsiyonal holatigacha bo‘lishi mumkin.

Yangi information texnologiyalar ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, agregatsiya qilish va yig‘ilgan ma’lumotlarni almashinishni insonning minimal ishtirokida amalga oshirishga imkon beradilar. Shuning uchun ham ushbu texnologiyalar to‘rtinchı sanoat inqilobining drayverlari bo‘lib hisoblanadilar. Ushbu inqilob masalalariga bag‘ishlangan Davos jahon halqaro iqtisodiy forumida muhokama qilingan texnologiyalardan biri buyumlar interneti konsepsiysi bo‘lib, forumda bu

bilan bog‘liq bo‘lgan masala va muammolar hamda bu texnologiyaning zamonaviy jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy landshaftiga ta’siri muhokama qilindi. Bu konsetsiya nafaqat material dunyo predmetlarini ular orasida ma’lumot almashinish uchun internet vositasida birlashtira oladi, balki insonlarning yashash va ish joylarida o‘zlarini qanday tutishlari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilishga ham imkon beradi. Davosdagi forum tomonidan tayyorlangan tahlilga ko‘ra, buyumlar interneti mobil internet, Big Data, tiklanadigan energiya manba’lari bilan bog‘liq yangi materiallar va texnologiyalar, kraudsorsing, peer-to-peer platformalar hamda bulutli texnologiyalar bilan bir qatorda to‘rtinchi sanoat revolyusiyasining top-5 texnologik drayverlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Avvalroq buyumlar internet Gartner (Gartner’s 2015 Hype Cycle for Emerging Technologies) ilmiy tadqiqit kompaniyasi tomonidan ikki ming texnologiyalar orasidagi eng kerakli, mijozlar bilan juda yaxshi teskari aloqani amalga oshirib beradigan, mahsulot va hizmatlarning sifatini yaxshilay oladigan texnologiya sifatida aytib o‘tigan edi. Ammo shuni ham aytib o‘tish kerakki, IoT konsepsiysi oldin ham ba’zi bir texnologik loyihalar (aqlli uy, shahar transportini boshqarishning avtonov tizimlari, zaridlarning individual datchiklari, insonlarning fizik xolatini kuzatib boradigan ilovalar) amalga oshirilganida bir predmetlarni boshqalari bilan ulash vositasi sifatida amalda qo‘llanilar edi. Qandaydir muddat davomida bunday loyihalar turli yo‘nalishlarda (shahar boshqaruvida, sog‘liqi saqlashda, ta’limda, tijoratda) parallel ravishda rivojlangan edilar. Ammo infratuzilmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi va tarmoqlarning quvvati yetarli emasligi ularni birlashtirishga va ma’lumotlarni inson ishtirokisiz bir qurilmadan boshqasiga uzatishga imkon bermadi. O‘z-o‘zini moslashtiruvchi tarmoqlar va bio algoritmlardan foydalanuvchi IoT konsepsiyasining amalga oshirilishi trillionlab mijozlar bazasi bo‘lgan tarmoqlararo ma’lumot almashinish imkonini berdi.

Atrof-muhitdagi buyumlarni birlashtirish bo‘yicha IoT imkoniyatlari ko‘lамини ko‘rsatish uchun quyidagi ma’lumotlarni keltiramiz: Halqaro simsiz aloqa ilmiy forumi bashoratlariga ko‘ra, 2020 yilgacha bitta tarmoqqa ulanadigan buyumlar soni yetti trilliionga yetishi mumkin ekan. Cisco kompaniyasi esa joriy o‘n yillikda internetga ulanadigan qurilmalarning sonini pul ko‘rinishida \$14,4 trillion dollar deb baholadi. Bu kompaniyaning ma’lumotlariga ko‘ra, hozircha jahondagi 99% fizik qurilmalar hozircha bir-biri bilan ulangan emas, ammo, bu biznesning rivojlanishi va o‘sishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. Bularning barchasi kelajakda buyumlar interneti iqtosodiyotining paydo bo‘lishiga olib keladi. Buyumlar soni 3-5 ming dona deb hisoblanadi va bu kelajakda 50 trillion buyumlarni bir informatsion tarmoqqa ulanish mumkinligi istiqboliga olib keladi.

Shuning uchun ham bir qator ilmiy-tadqiqot kompanyalari va bir qancha ko‘zga ko‘ringan olimlar buyumlar internetini tizimning yangi rivojlanish bosqichi deb ko‘ra boshladilar, chunki bu insonlarni, jarayonlarni, ma’lumotlarni va buyumarni birlashtirish orqali insoniyatga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib beradigan konsetsiya va bu bilan bog‘liq texnologiyalardir. Buyumlar internet konsepsiyasiga o‘tishda tarmoq **geterogen** infratuzilma bo‘lib qoladi. Unda bio algoritmlarning ishlab chiqarish quvvati an’anaviy marshrutlashtirish

algoritmlaridan ancha ko‘p miqdorda bo‘lib, ular simsiz o‘z-o‘zidan moslashuvchi sun’iy intellect tizimlarnini ancha mukammallashtirishga imkon beradi.

Keyingi yillarda buyumlar internetining alohida tarmoqlarning (sog‘liqni saqlash, havfsizlik, shahar infratuzilmasi), biznes-modellarning tijoratlashtirishning rivojlanishiga ta’siri ham kuchaydi. Keyingi paytlarda IoT texnologiyalarning havfsizligini ta’minalashga katta ahamiyat qaratilmoqda, ammo bu ish muammoning taxnologik va huquqiy tomonlari bilan chegaralanib qolmoqda. Bir qancha ilmiy ishlarda esa buyumlar internetining ijtimoiy va ruhiy jihatlariga, shu jumladan, jamiyat, tashkilot va insonga bo‘lgan ta’siriga ham e’tibor qaratilmoqda. IoT texnologiyasining tarafdorlari va faol ishlavchilari uning rivojlanishiga exnooptimizm nuqtai-nazaridan yondoshadilar va bu texnologiya ta’sirida inson imkoniyatlari cheksiz ravishda kengayishiga astoydil ishonadilar.

Haqiqatan ham mashinaviy texnologiyalar va inson imkoniyatlarining birlashishi insoniyat rivojlanishi hamda uning salohiyoti oshishi uchun yangidan-yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu soha bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan mutaxassis D. Rouzning aytishicha, texnologiyalar vositasida o‘zgartirilgan obyekt nafaqat yangi kuchga ega bo‘ladi va o‘zining qo‘llanilish imkoniyatlarini oshiradi, balki hayotimizni yanada to‘liq qiladi. Demak, IoT hayotimizga shunchalik chuqur kirib boradiki, inson uning borligini ba’zida sezmay ham qoladi, bu esa hayotimizni yanada qulay qilishga olib keladi. Ammo buyumlar internet hayotimizni qulay va to‘liqroq qilish bilan birgalikda atrof-muhitdagi narsa va predmetlar aktiv agentlarga aylanib qolib, turli xildagi hayotiy xolatlarda inson o‘rniga qarorlar qabul qilishni boshlaydilar. Bu esa bir qancha noqulayiklar ham tug‘dirishi mumkin albatta.

Insoniy va mashinaviy fikrlashning asta-sekin bir-biriga yaqinlashishi va bir-birining o‘rnini bosa boshlashi inson hayotining yagonalig, qaytarilmasligi va konfidensialligiga tajovuz qilgan holda ijtimoiy muammolar ning kuchayishga olib keladi. Insonlar orasidagi yaqin aloqalar asta-sekin yoqola boshlaydi, ba’zi bir guruh insonlar exklyuziy shaxslar sifatida hayotdan o‘rin ola boshlaydi va shu tufayli jamiyat hayotida keskin qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Bunday holatdan marketologlar maqsadli segmentlar bilan muloqot qilishda va yangi marketing strategiyasi yaratishda unumli foydalanishlari mumkin. Buyumlar internetining zamonaviy inson identikligini ta’minalash to‘g‘risida fikrlaganda, ijod masalasini ham alohida ko‘rsatish talab etiladi. Buyumlar interneti iqtisodiyoti sharoitlarida inson faoliyatini standartlashtirish, uning faoliyatini modellashtirish kuchayib boraveradi. Ammo endi bu amal insonlar tomonidan emas, balki, biomashinalar va algoritmlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday sharoitlarda insoniy ijod va kreativlikka o‘rin qoladimi yoki yo‘qmi – buni kelajak hal qiladi. IoT konsepsiyasini va bu bilan bog‘liq bo‘lgan texnologiyalarni tadbiq qilish ko‘pchilik kompaniya va tashkilotlar uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib beradi hamda ulardagi boshqaruv funksiyalarini, faoliyatni tashkil qilishni va joriy faoliyatni tubdan o‘zgarib yuboradi.

Buyumlar internetini o‘z faoliyatiga tadbiq qilgan global kompaniyalar tajribasi ularda ishlab chiqarish samaradorligi keskin o‘sganligini ko‘rsatdi, logistika, marketing, administrative jarayonlarga bo‘lgan harajatlarni esa keskin kamaytirish imkoniyatini berib, yangi turdagи korxonalar tashkil qilishga imkon

bermoqda (4.0 Industriya). Lekin bunday turdag'i texnologik yechimlarni amalga oshirish odammashina muloqotining va ijtimoiy muloqotning yangi turlarini topishni talab qiladi. Masalan, Airbus kompaniyasi jihozlarni, robotlarni va mashinalarni bir butun IoT tarmog'iga birlashtirib, kompaniya tashkilotlariga maksimal avtonom rejimda ishlash, samolyotlar yig'ishning sifatini oshirish va barcha operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Ammo bu ishning amalga oshirilishi insonlar va mashinalarni qo'shimcha va virtual reallik uskunalari vositasida ulash bilan bog'liq bo'lgan katta harajatlarga olib keldi. Boshqa tomonidan, buyumlar internet konsepsiyaning rivojlanishi regional va global miqyosda mehnat bozorining transformatsiyasiga olib keladi. Chunki bunda yangi turdag'i hizmatchilarga bo'lgan talab ortadi hamda jamiyatdagi bir qancha professional, tashkiliy, protsessual va ijtimoiy muammolarni hal qilish zarur bo'ladi.

Shuning uchun ham IoT rivojlanishiga qarshi bo'lganlar ish joylarining qisqarishini, ishsizlar soni ko'payishini, ba'zi kasblarning yo'qolib ketishini va ijtimoiy tengsizlik kuchayichini asosiy sabablar tariqasida keltiradilar. Buyumlar internetining jamiyat hayotiga bo'lgan ta'sirini quyidagi raqamlardan ham yaqqol ko'rib chiqish mumkin: IoT konsepsiyanining informatsion va telekommunikatsion sohaga ta'siri 33%, professional hizmatlarga ta'siri 15%, mediaindustriyaga va oyinkulgi industriyasiga ta'siri 14%, iste'mol sektoriga ta'siri esa 14% bo'lar ekan. Eng kam ta'sir esa energetikaga bo'lishi (4%) ham bashorat qilingan.

Buyumlar internetining eng ijobiy ta'siri arxitektura va dizaynga, eng salbiy ta'siri esa sotuv menejerlariga, ofis menejerlarga va administrativ sohaga bo'lishi kutilayapti. Ammo bunda yana bir qancha savollar paydo bo'ladi – ta'lim tizimi bu sohadagi malakali mutahassislarni tayyorlashga qodirmi, ishdan bo'shagan kadrlarni nima qilish kerak, ularni qanday qilib qayta tayyorlash mumkin, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari qanday bo'lishi lozim. IoT korxona va tashkilotlarning ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va saqlash kabi ishlariga ketadigan harajatlarni ancha kamaytiradi, chunki barcha ma'lumotlar datchiklar yordamida yig'iladi, qayta ishlanadi va foydalanuvchiga yetkaziladi. Tashkilotni boshqarish tizimida IoT nazorat samaradorligini oshiradi: barcha ma'lumotlar smartfon qurilmalari va gadjetlari vositasida barcha ishchi-hizmatchilarga tezkor yetkaziladi. Ammo bunda boshqa bir savol ham paydo bo'ladi – bunday total nazorat sharoitida hodimlar uchun ishlash qanchalik qulay bo'ladi.

Bunday sharoit hodimlarga bo'lgan ruhiy bosim kompaniya va ishchilar orasidagi o'zaro ishonchning yo'qolishiga, befarqlikning o'sishiga, mehnat munosabatlarida tushunmovchiliklarga va shaxslararo munosabatlarning chigallashiga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat ofisda va ishlab chiqarishda ishlaydiganlarga, balki virtual ish joylarida ishlovchilarga va frilanserlarga ham tegishi bo'lishi mumkin, chunki ular ham IoT tufayli nazorat ostiga tushib qoladilar. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, buyumlar internetining rivojlanishi boshqa turdag'i texnologiyalar bilan birgalikda insonning o'zini va dunyoqarashini ham o'zgartirishga olib keladi. Inson ishtiokisiz muloqot qiladigan, turli xildagi ma'lumotlarni yig'adigan va bir biriga uzata oladigan hamda yagona tarmoqqa birlashgan buyumlarning barcha sohalarga kirib kelishi insonning jamiyatdagi roli, uning uchun qadrli bo'lgan tushunchalarning hamda uni ruhiyatini o'zgartirib

yuboradi.

Shaxsiy ko‘rinishdagi ma’lumotlarning katta miqdorda yig‘ilishi insonning hayotini qulaylashtiradi, informatsiya va hizmatlarni tezkor olishga imkon beradi. Tijorat kompaniyalari esa bundan foydalangan xolda haridorlarning talab va istaklarini to‘liqroq qondirishga harakat qiladilar. Bu esa shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi muammosini keltirib chiqaradi. Shu tufayli butun dunyo hamjamiyati rivojlanayotgan innovatsion texnologiyalar hamda insonning shaxsiy hayotini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilshga harakat qilayaptilar. Bunday masalalarni hal qilishning usullaridan biri mediasketizm (raqamli sabr qilish) ni tashviq qilishdir. YA’ni inson bunda yangi innovatsion texnologiyalar va elektron tijorat vositalaridan qanday foydalanishni o‘z hoxishiga ko‘ra tanlab olishi mumkin bo‘ladi.

Shuni juda yaxshi tushunish kerakki, buyumlar interneit va texnologizatsiyaning boshqa konsetsiyalarini to‘xtatish mumkin emas, bizda faqat proaktiv rejalashtirish, yangi texnologiyalarning imoniyatlarini amalga oshira oladigan uskuna va mexanizmlarni yaratish va shu orqali mamlakat kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish uchun qandaydir vaqt intervali bor xolos. IoT Security Foundation ishlab chiqaruvchilardan mustaqil bolgan halqaro tashkilot bo‘lib, u bilimlar, ilg‘or tajribalar va takliflar bilan almashinish masalalari bilan shug‘ullanadi. Unda bir qancha ma’lumtnomalar bo‘lib, ularning biri “IoT ning havfsizligini ta’minalash asoslari” deb nomlanadi. Ularning fikricha, IoT internet evolyusiyasidagi yangi bosqich hisoblanadi. Shu texnologiya tufayli mahsulot va hizmatlarning narxlari ancha kamaydi va natijada bozorga yangi turdagи tovarlar kirib keldi. Buyumlar internet yangi mobil qurilmalar, gadjetlar, uskunalar, jarayonlarga ulangan datchiklar va intellectual oyinchoqlar tufayli borgan sari kengayib bormoqda. Shuning uchun agarda kerakli va yetarli himoya vositalari bo‘lmasa, ko‘ngilochar internet (internet of treats) osonlik bilan tahdidlar interneti (internet of threats) ga aylanib qolishi mumkin.

2.3. Buyumlar interneti texnologiyalari.

Identifikatsiya qilish vositalari. Ma’lumotlar tarmoqlariga ulanish vositalari bilan ta’milanmagan jismoniy dunyo obektlarining “buyumlar interneti”ga jalb etilishi ushbu obektlarni (“narsalar”) identifikatsiyalash texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. RFID texnologiyasi konsepsiyaning paydo bo‘lishiga turki bo‘lgan bo‘lsa-da, avtomatik identifikatsiya qilish uchun ishlatiladigan barcha vositalar bunday texnologiyalar sifatida ishlatilishi mumkin: optik jihatdan tanib olinadigan identifikatorlar (shtrix kodlari, Data Matrix, QR kodlari), real vaqtida joylashuvni aniqlash vositalari. “Buyumlar interneti”ning har tomonlama tarqalishi bilan obyekt identifikatorlarining o‘ziga xosligini ta’minalash muhim ahamiyatga ega, bu esa o‘z navbatida standartlashtirishni talab qiladi.




Data Matrix Code



QR Code

2.3-rasm. Data Matrix, QR kodlar ko‘rinishi

Bevosita Internet tarmoqlariga ulagan obektlar uchun an’anaviy identifikator tarmoq adapterining MAC manzili bo‘lib, u sizga ularish darajasida qurilmani aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga mavjud manzillar diapazoni deyarli tugamaydi (MAC-48 da 2^{48} manzil). Bunday qurilmalar uchun kengroq identifikatsiya qilish imkoniyatlari IPv6 protokoli bilan ta’milnadi, u Yer aholisiga kamida 300 million qurilmani unikal tarmoq qatlami manzillari bilan ta’milaydi.



2.4-rasm. O‘lchash vositalari

O‘lchash vositalari. O‘lchash vositalari tashqi muhit haqidagi ma’lumotlarni mashina o‘qiy oladigan ma’lumotlarga aylantirishni ta’minlovchi va shu orqali hisoblash muhitini mazmunli ma’lumotlar bilan to’ldirishni ta’minlovchi

“Buyumlar Interneti”da alohida o‘rin tutadi. Elementar datchiklardan (masalan, harorat, bosim, yorug‘lik), iste’molni o‘lhash asboblaridan (masalan, aqli hisoblagichlar) murakkab integratsiyalashgan o‘lhash tizimlarigacha bo‘lgan keng turdag‘i o‘lchov asboblari qo‘llanadi. “Buyumlar interneti” konsepsiysi doirasida o‘lhash vositalarini tarmoqda (masalan, simsiz sensor tarmoqlari, o‘lhash komplekslari) birlashtirish muhim ahamiyatga ega, buning natijasida mashinadan mashinaga o‘zaro ta’sir qilish tizimlarini qurish mumkin.

Aloqa vositalari. Mumkin bo‘lgan ma]lumotlarni uzatish texnologiyalari spektri simsiz va simli tarmoqlarning barcha mumkin bo‘lgan vositalarini qamrab oladi.

Simsiz ma]lumotlarni uzatish uchun past tezlikda samaradorlik, nosozliklarga chidamlilik, moslashuvchanlik va o‘zini o‘zi tashkil qilish imkoniyati kabi fazilatlar “buyumlar interneti”ni yaratishda ayniqsa muhim rol o‘ynaydi. Ushbu quvvatga asosiy qiziqish IEEE 802.15.4 standarti bo‘lib, u energiya tejaydigan shaxsiy tarmoqlarni tashkil qilish uchun jismoniy qatlam va kirishni boshqarishni belgilaydi va ZigBee, WirelessHart, MiWi, 6LoWPAN, LPWAN kabi protokollar uchun asos hisoblanadi.

2.4. Buyumlar internetida foydalaniladigan ilovalar.

Iste’molchi ilovalari. IoT qurilmalari soni ortib bormoqda, jumladan, ulangan transport vositalari, uy avtomatizatsiyasi, aqli kiyim-kechak, ulangan sog‘liqni saqlash va masofadan nazorat qilish imkoniyatiga ega jihozlar.

Aqli uy. IoT qurilmalari uyni avtomatlashtrishning keng konsepsiyasining bir qismi bo‘lib, yoritish, isitish va konditsioner, media tizimlari va xavfsizlik tizimlari va video kuzatuv tizimlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Uzoq muddatli imtiyozlar yorug‘lik va elektronikani avtomatik ravishda o‘chirish yoki uy aholisini foydalanish to‘g‘risida xabardor qilish orqali energiya tejashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Aqli uy yoki avtomatlashtrilgan uy aqli qurilmalar va jihozlarni boshqaradigan platforma yoki markazlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Masalan, Apple HomeKit’ dan foydalanib, ishlab chiqaruvchilar iPhone va Apple Watch kabi iOS qurilmalaridagi ilova yordamida uy mahsulotlari va aksessuarlarini boshqarishi mumkin.

Bu maxsus dastur yoki Siri kabi mahalliy iOS ilovalari bo‘lishi mumkin. Buni Lenovo Smart Home Essentials misolida ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, Amazon Echo, Google Home, Apple HomePod va Samsung SmartThings Hub kabi turli xil aqli uy mahsulotlarini ularash uchun mustaqil platformalar sifatida taqdim etiladigan maxsus aqli uy markazlari mavjud. Tijorat tizimlaridan tashqari, ko‘plab nodavlat ochiq manba ekotizimlari mavjud, jumladan, Home Assistant, OpenHAB va Domoticz.



2.5-rasm. Apple HomeKit vositalari



2.6-rasm. Lenovo Smart Home Essentials vositalari

Keksalarga g‘amxo‘rlik qilish. Aqlii uyning asosiy ilovalaridan biri nogironlar va qariyalarga yordam berishdir. Ushbu uy tizimlari egasining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun yordamchi texnologiyalardan foydalanadi. Ovozli boshqaruv ko‘rish va harakatchanlik nuqsonlari bo‘lgan foydalanuvchilarga yordam berishi mumkin, shu bilan birga umumiylar murojaat qilish tizimlari eshitish qobiliyati zaif foydalanuvchilar tomonidan kiyiladigan koxlear implantlarga bevosita ulanishi mumkin. Ular, shuningdek, qo‘srimcha xavfsizlik funksiyalari bilan jihozlanishi mumkin. Bu xususiyatlar yiqilish yoki tutilish kabi tibbiy favqulodda vaziyatlarni kuzatuvchi sensorlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Shu tarzda qo‘llanadigan aqlii uy texnologiyasi foydalanuvchilarga ko‘proq erkinlik va hayot sifatini oshirishi mumkin.

Tibbiyot va sog‘liqni saqlash. IoT qurilmalari sog‘liqni masofadan monitoring qilish va favqulodda ogohlantirish tizimlarini ta’minlash uchun ishlatalishi mumkin. Ushbu salomatlik monitoringi asboblari qon bosimi va yurak

urish tezligi monitorlaridan tortib, yurak stimulyatori, Fitbit elektron bilaguzuklari yoki ilg‘or eshitish apparatlari kabi maxsus implantlarni kuzatishga qodir ilg‘or qurilmalargacha bo‘lishi mumkin. Ba’zi shifoxonalar band bo‘lgan vaqtini va bemor qachon turishga harakat qilayotganini aniqlay oladigan “aqli to‘sak”larni joriy qilishni boshladi.

2018-yildan boshlab IoMT nafaqat klinik laboratoriya sanoatida, balki sog‘liqni saqlash va tibbiy sug‘urtada ham qo‘llandi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi IoMT hozirda shifokorlar, bemorlar va bemorlarga g‘amxo‘rlik qiluvchilar, hamshiralar, oilalar va boshqalarga imkon beradi. Bundan tashqari, IoT-ga asoslangan tizimlar bemorga yo‘naltirilgan bo‘lib, bemorning tibbiy sharoitlariga nisbatan moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Sug‘urta sanoatidagi IoMT eng yaxshi va yangi turdagи dinamik ma’lumotlarga kirishni ta’minlaydi. Bunga mijozlar xattiharakatlarini kuzatish uchun biosensorlar, taqiladigan qurilmalar, ulangan tibbiy qurilmalar va mobil ilovalar kabi sensorga asoslangan yechimlar kiradi. Bu aniqroq andarrayting va yangi narxlash modellariga olib kelishi mumkin.

Sog‘liqni saqlashda buyumlar internetini qo‘llash surunkali kasallikkarni davolashda, shuningdek, kasallikkarning oldini olish va nazorat qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Kuchli simsiz yechimlarni ulash orqali masofadan turib monitoring qilish mumkin. Ulanish amaliyotchilarga bemor ma’lumotlarini to‘plash va sog‘liqni saqlash ma’lumotlarini tahlil qilish uchun murakkab algoritmlarni qo‘llash imkonini beradi.

Transport. Buyumlar Interneti turli transport tizimlarida aloqa, boshqaruв va axborotni qayta ishslashni birlashtirishga yordam beradi. Transport tizimining ushbu komponentlari o‘rtasidagi dinamik o‘zarо ta’sir transport vositalari o‘rtasida va ichida aloqa, aqli harakatni boshqarish, aqli to‘xtash joyi, elektron to‘lov tizimlari, logistika va parkni boshqarish, transport vositalarini boshqarish, xavfsizlik va yo‘l bo‘ylab yordam imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligida ko‘plab IoT ilovalari mavjud, masalan, harorat, yog‘ingarchilik, namlik, shamol tezligi, zararkunandalar va tuproq tarkibi haqida ma’lumot to‘plash mumkin. Bu ma’lumotlardan dehqonchilik amaliyotini avtomatlashtirish, sifat va miqdorni yaxshilash bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish, xavf va isrofgarchilikni minimallashtirish hamda ekinlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni kamaytirish uchun foydalanish mumkin. Misol uchun, endi fermerlar tuproq harorati va namligini uzoqdan kuzatishi va hatto IoT ma’lumotlarini aniq o‘g‘itlash dasturlariga qo‘llashi mumkin. Umumiy maqsad shundan iboratki, sensor ma’lumotlari fermerning o‘z xo‘jaligi haqidagi bilimi va sezgi bilan birgalikda fermer xo‘jaligi unumdonligini oshirish hamda xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Buyumlar internetiga tarif bering.
2. Buyumlar internetining mohiyati va ishlatilishi nimalarni qamrab oladi?
3. Buyumlar interneti texnologiyalariga misollar asosida ma’lumotlar keltiring.
4. Buyumlar internetida foydalaniladigan ilovalar nimani tushunasiz?

Adabiyot va Internet saytlar:

1. „Internet Of Things“ (en). Gartner IT glossary. Gartner (5-may 2012-yil). — „The Internet of Things is the network of physical objects that contain embedded technology to communicate and sense or interact with their internal states or the external environment.
2. Dave Evans. „The Internet of Things. How the Next Evolution of the Internet Is Changing Everything“ (en). Cisco White Paper. Cisco Systems (11-aprel 2011-yil).
3. Flavio Bonomi, Rodolfo Milito, Jiang Zhu, Sateesh Addepalli. „Fog Computing and Its Role in the Internet of Things“ (en). SIGCOMM’2012. ACM (19-iyun 2012-yil).
4. " https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyumlar_interneti

3-ma’ruza. Axborot-kommunikatsiya tizimlarida biotibbiyot injiniringi (biomedical engineering): asosiy tushunchalar (2 soat).

Reja:

- 3.1. Biotibbiyot muhandisligi.
- 3.2. Bioinformatika va biotibbiy optika.
- 3.3. Tibbiyot informatikasini amaliy masalalari.
- 3.4. Funksional diagnostikani kompyuter tizimlari.

Asosiy tushunchalar: *Biotibbiyot, Biotibbiyot muhandisligi, biologik material, bioinformatika, biotibbiy optika, genetika, DNK zanjiri, nevron, Farmatsevtika muhandisligi, dializ apparatlari, sun’iy organlar, implantlar, sun’iy oyoq-qo’llar, tibbiy tasvir, tibbiy implant.*

3.1. Biotibbiyot muhandisligi.

Biotibbiyot muhandisligi (BIM) yoki tibbiyot muhandisligi muhandislik tamoyillari va dizayn tushunchalarini tibbiyot va biologiyaga sog‘liqni saqlash maqsadlarida (masalan, diagnostika yoki terapevtik) qo’llashdir. BIM, shuningdek, an’anaviy ravishda sog‘liqni saqlashni davolashni, jumladan diagnostika, monitoring va terapiyani rivojlantirish uchun mantiqiy fanlardir. Shuningdek, biotibbiyot muhandisi sohasiga tegishli sanoat standartlariga rioya qilgan holda shifoxonalarda mavjud tibbiy asbob-uskunalarni boshqarish kiradi. Bu xaridlar, muntazam sinovlar, profilaktik xizmat ko’rsatish va asbob-uskunalar bo'yicha tavsiyalar berishni o'z ichiga oladi, bu rol biotibbiyot uskunalari bo'yicha mutaxassis yoki klinik muhandislik.

Biotibbiyot muhandisligi boshqa ko‘plab muhandislik sohalariga qaraganda yaqinda o‘z tadqiqoti sifatida paydo bo‘ldi. Bunday evolyusiya allaqachon tashkil etilgan sohalar orasidagi fanlararo ixtisoslikdan o‘z-o‘zidan bir soha hisoblanishiga yangi soha o‘tish sifatida keng tarqalgan.

Biotibbiyot muhandisligidagi ishlarning aksariyati keng doiradagi kichik sohalarni qamrab olgan tadqiqot va ishlanmalardan iborat (pastga qarang). Taniqli biotibbiyot muhandisligi ilovalari orasida biomos keluvchi protezlar, turli diagnostika va terapeutik tibbiy asboblar, klinik jihozlardan mikro-implantlarga, MRI (Magnetic resonance imaging) va EKG kabi keng tarqalgan tasvirlash uskunalarini, regenerativ to‘qimalarning o‘sishi, farmatsevtik preparatlar va terapeutik biologik.

3.2. Bioinformatika va biotibbiy optika.

Bioinformatika - bu biologik ma’lumotlarni tushunish uchun usullar va dasturiy vositalarni ishlab chiqadigan fanlararo soha. Bioinformatikaning fanlararo sohasi sifatida bioinformatika biologik ma’lumotlarni tahlil qilish va sharhlash uchun informatika, statistika, matematika va muhandislikni birlashtiradi.

Bioinformatika o‘z metodologiyasining bir qismi sifatida kompyuter dasturlashdan foydalanadigan biologik tadqiqotlar to‘plami uchun atama, shuningdek, ayniqla genomika sohasida qayta-qayta qo‘llaniladigan maxsus tahlil “atamalar” ga havola hisoblanadi. Bioinformatikadan keng tarqalgan foydalanish nomzod genlar va nukleotidlarni (SNPs) aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha bunday identifikatsiya kasallikning genetik asoslarini, o‘ziga xos moslashuvlarni, kerakli xususiyatlarni (ayniqla, qishloq xo‘jaligi turlarida) yoki populyatsiyalar o‘rtasidagi farqlarni yaxshiroq tushunish maqsadida amalga oshiriladi. Kamroq rasmiy tarzda, bioinformatika nuklein kislotasi va oqsil ketma-ketligidagi tashkiliy tamoyillarni ham tushunishga harakat qiladi.

Biomaterial - bu tirik tizimlar bilan o‘zaro ta’sir qiladigan har qanday modda, sirt yoki konstruksiY. Fan sifatida **biomateriallar** taxminan ellik yoshda. Biyomateriallarni o‘rganish **biomateriallar fani yoki biomateriallar muhandisligi** deb ataladi. U o‘z tarixi davomida barqaror va kuchli o‘sishni boshdan kechirdi, ko‘plab kompaniyalar yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun katta miqdorda mablag‘ sarfladilar. Biomateriallar fani tibbiyot, biologiya, kimyo, to‘qimalar muhandisligi va materialshunoslik elementlarini o‘z ichiga oladi.

Biotibbiyot optikasi biologik to‘qimalar va yorug‘likning o‘zaro tasirini o‘rganish uchun fizika, muhandislik va biologiya tamoyillarini birlashtirib, undan sezish, tasvirlash va davolashda qanday foydalanish mumkinligini o‘rganadi. U optik tasvirlash, mikroskopiya, oftalmoskopiya, spektroskopiya va terapiyani o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ilovalarga ega. Biomedikal optika texnikasi va texnologiyalariga misollar orasida optik kogerent tomografiya, floresan mikroskopiya, konfokal mikroskopiya va fotodinamik terapiya kiradi. Masalan, OCT yorug‘likdan foydalanib, ko‘zning to‘r pardasi yoki yurakdagagi koronar arteriyalar kabi ichki tuzilmalarning yuqori aniqlikdagi uch o‘lchamli tasvirlarini yaratadi. Floresan mikroskopiysi maxsus molekulalarni lyuminessent bo‘yoqlar bilan belgilash va ularni yorug‘lik yordamida vizualizatsiya qilish, biologik jarayonlar va kasallik mexanizmlari haqida tushuncha berishni o‘z ichiga oladi. So‘nggi paytlarda adaptiv optika biologik to‘qimalarda buzilishlarni to‘g‘irlash orqali tasvirlashda yordam beradi, bu esa yuqori aniqlikdagi tasvirni olish imkonini beradi va lazer jarrohligi va retinal tasvirlash kabi protseduralarning aniqligini oshiradi.

3.3. Tibbiyot informatikasini amaliy masalalari.

Statistika ma'lumotlarni qayta ishlash. Sog' odamning tibbiy -biologik ma'lumotlari kuydagi guruxlarga bo'linishi mumkin:

1. Sonli ma'lumotlar – parametrlar: odamning bo'yi, qonidagi biologik moddalar, badan xarorati, be'morlarni soni, patsientning yoshi.

2. Belgilanuvchi, aniq baholanmaydigan ma'lumotlar: og'riq darajasi, be'morning yuzini rangi, patsientning kayfiyati.

3. Odamning tanasini o'lchovlarining statik tasvirlari: rentgen tasviri, tomogramma tasviri, magnit-rezonans tasviri (uzi).

4. Odamning tanasini o'lchovlarining dinamik ko'rsatgichlari: qo'l xarakati, qon tomirlarga yuborilgan moddalar xarakati.

Shifokorlarni kompyuterda saqlaydigan ma'lumotlar bazalari:

- bemorlarni kasallik tarixlari;
- dori-darmon ro'yxatlari;
- ma'lumotnomalar;
- ilmiy-tadqiqot ishlarni natijalara;
- boshqarishka tegishli ma'lumotlar (xisobotlar).

Taxlil va diagnostika. Bemorning davolash paytidagi ko'rsatkichlari, operatsiyadan keyingi axvoli, og'ir jaroxotdan keyingi davolanish natijalari – bular xammasi umumiylashtiriladi va taxlil qilinadi. Davolash jaraenini o'rganish paytda elektrokardiogramma, qon bosimi elektroensefalogramma, puls, boshqa ko'rsatgichlardan foydalaniladi.

Shifokorlarni o'rgatish va malakasini oshirish. Bunda asosan kompyuterdan foydalanish, amaliy dasturlarni ishga tushirish, kerakli ma'lumotlarni taylorlash va adres buyicha jo'natish, qabul qilinayotgan bemorlarni ruyxatini tuzish kabi ishlarni yosh shifokorlaga o'rgatish, kompyuterdan unumli foydalanishni o'rgatish.

Tibbiyotdagi xizmat ko'rsatishni boshqarish.

Bularni qatoriga ofis tibbiet tizimidagi masalalar kiradi:

- shifokorlarni ishlash jadvali;
- kasallik ruyxatlarni olib borish;
- bemorlarni ruyxatini olib borish;
- asbob-uskunalarini ruyxatini olib borish;
- joriy xarajatlarni nazorati;
- to'lovlarini nazorati.

Laboratoriyalarda olib boradigan tadqiqotlar (natijalari va xisobotlar).

Diagnostika va qaror qabul qilish. Bular asosan matematik usullarni qo'llash bilan bajariladigan tadqiqotlar.

1. Sonli usullar asosidagi algoritmlar (ixtimollar nazariyasi, signallarga raqamli ishlov berish, qaror qabul qilish nazariyasi).

2. Mantiqiy modellar asosidagi algoritmlar(Bul algebrasi, statistik taxlil, timsollarni taxlili, funksional taxlili).

3. Sun'iy intellekt algoritmlari (neyron tarmoqlari, ekspert tizimlari).

Ilmiy izlanishlarning maqsadi – bomorlarning davolanishida uchraydigan faktlar, belgilar, konunlar asasida bilimlar bazasini yaratish va undan unumli

foydalinish.

Apparat-dasturiy komplekslar (ADK) tibbiet soxasida asosiy axborot tizimiga aylangan. Ular bemor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan bo‘lib real vaqt rejimida ish olib boradilar. Ularni tarkibida kompyuter texnikasidan tashqari tibbiet uskunalar, monitor vositalari, a’loqa vositalari, qo‘srimcha texnika vositalari mavjud.




3.1-rasm. Ultrazvuk diagnostikasi kompleksi

ADK bajariladigan vazifalariga qarab kuyidagi sinflarga bo‘linadi:

- ixtisoslashtirilgan tizimlar (kardiograflar, UZI-apparatlar);
- ko‘p maqsadli tizimlar (kompyuter tomografiyasi);
- kompleks tizimlar (kardiologiya, xirurgiya, terapiya tizimlari).

Keltirilgan rasmda ultrazvuk diagnostika kompleksi keltirilgan. Uni tarkibida ultrazvuk o‘lchag‘ichi, o‘lchalgan parametrlarni raqamli ko‘rinishga o‘tqazish va qo‘lga kiritgan ma’lumotlarni sonogramma ko‘rinishga keltirish.



3.2-rasm. Sonografiya ko‘rinishdagi o‘lchov natijalari (o‘t pufagi)

Amaliy maslalarni yechish tomonidan ADK turli sinflarga bo‘linish mumkin:

- bemorning axvolining nazorat qiluvchi komplekslar,
- davolanish jarayenining monitoring qiluvchi tizimlar,

